



UDK:81.2.81.32

Feruza MAMATOVA,

*O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, PhD
Namangan Davlat chet tillari instituti DSc mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: feruzahon26@gmail.com*

METAFORA-FENOMEN KONSEPTUAL METAFORANING BIR TURI SIFATIDA

Annotatsiya

Metaforalarning insoniy tajriba va emotsional kechinmalarni ifodalashdagi roli nihoyatda ahamiyatlidir, chunki ular individning ichki psixologik holatlari va ongiy jarayonlarini chuqur va murakkab tarzda tasvirlash imkonini beradi. Aksariyat hollarda to'g'ridan-to'g'ri izohlanishi mushkul bo'lgan emotsional holatlarni verbal shaklda ifodalash uchun metaforalar kuchli semiotik vosita sifatida xizmat qiladi. Agar metafora shaxsiy tajriba yoki ruhiy holatni muvaffaqiyatli aks ettira olsa, u nafaqat individual hissiyotlarni yetkazadi, balki auditoriyada ham empatik rezonans uyg'otib, ularni voqelikni boshqa birovning subyektiv tajribasi orqali idrok etishga undaydi. Maqolada konseptual metaforaning bir turi sifatida metafora-fenomen shakli haqida tahlillar olib borilgan.

Kalit so'zlar: Konseptual metafora, metafora-fenomen, hissiy kechinma va tajriba, ruhiy holat, metaforik model.

METAPHORA-PHENOMEN AS A TYPE OF CONCEPTUAL METAPHORA

Annotation

The role of metaphors in expressing human experience and emotional states is extremely significant, as they enable a deep and complex portrayal of an individual's internal psychological conditions and cognitive processes. In most cases, metaphors serve as a powerful semiotic tool for verbally expressing emotional states that are difficult to explain directly. If a metaphor successfully reflects personal experience or mental state, it not only conveys individual feelings but also evokes empathetic resonance in the audience, encouraging them to perceive reality through another person's subjective experience. The article analyzes the metaphor-phenomenon form as a type of conceptual metaphor.

Key words: Conceptual metaphor, metaphor-phenomenon, emotional experience, mental state, metaphorical model.

МЕТАФОРА-ФЕНОМЕН КАК ТИП КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ

Аннотация

Роль метафор в выражении человеческого опыта и эмоциональных состояний чрезвычайно важна, поскольку они позволяют глубоко и сложно изобразить внутренние психологические состояния и когнитивные процессы индивида. В большинстве случаев метафоры служат мощным семиотическим инструментом для вербального выражения эмоциональных состояний, которые трудно объяснить напрямую. Если метафора успешно отражает личный опыт или психическое состояние, она не только передает индивидуальные чувства, но и вызывает эмпатический резонанс у аудитории, побуждая ее воспринимать реальность через субъективный опыт другого человека. В статье анализируется метафоро-феноменная форма как тип концептуальной метафоры.

Ключевые слова: Концептуальная метафора, метафора как феномен, эмоциональный опыт, ментальное состояние, метафорическая модель.

Kirish. Kognitiv tilshunoslik doirasida, konseptual metafora mavhum tushunchalarni aniqroq va bizga tanish bo'lgan tasavvurlar orqali tushunishimizni tizimlashtiradi. Konseptual metafora ayniqsa inson his-tuyg'ulari, hissiyotlari, turli kechinmalari bilan bog'liq bo'lsa, ular aksariyat tadqiqotlarda "Conceptual metaphors of emotions", "Conceptual metaphors related to emotions" deb nomlanadi. Aslida, ko'p hollarda his-tuyg'ular bilan bog'liq, chunki ular murakkab tuyg'u va kechinmalarni obrazlar, assotsiatsiyalar va ramzlar orqali ifodalash imkonini beradi. Biz metaforalardan foydalanganimizda, shunchaki axborot yetkazish bilan cheklanib qolmaymiz, balki muloqotimizni yanada yorqinroq va mazmunliroq qiladigan hissiy obrazlarni ham yaratamiz. Masalan, "yurak notinch", "hayot-oqar suv", "the burden of guilt", deyilganda oddiy og'riqni tasvirlash emas, balki azob-uqubatning hissiy idrokini kuchaytiruvchi metaforadir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, biz inson kechinmalari, ortirilgan hayotiy tajribalari,

hissiyotlarini namoyon etuvchi konseptual metaforalarni "emotive conceptual metaphor" yoki o'zbek tilida "hissiyot bilan bog'liq konseptual metafora" kabi nomlanishlarni "metaphor-phenomenon", "metafora-fenomen" deb atashni taklif qilamiz va metafora-fenomenlar konseptual metaforalarning bir turi deb hisoblaymiz. Vaholanki, inson tajribasi va kechinmalariga oid metaforalar haqiqatan ham fenomenal, chunki ular insonning ichki dunyosi teranligini ifodalash imkonini beradi. Bu metaforalar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri tasvirlash qiyin bo'lgan his-tuyg'u va fikrlarni ifodalashning kuchli vositasi sanaladi. Metafora shaxsiy tajriba yoki kechinmani muvaffaqiyatli aks ettirsa, u nafaqat hissiyotni tasvirlaydi, balki boshqalarda ham aks-sado uyg'otib, ularni dunyoni boshqa insonning tajribasi nuqtai nazaridan ko'rishga undaydi. Bunday metaforaga "hayotim chorrahasida turibman" iborasini misol qilib keltirish mumkin. Bu metafora shunchaki tanlov vaqtini tasvirlabgina qolmay, balki insonlar hayotning turli nuqtalarida duch keladigan muhim burilish nuqtasini ham

anglatadi. U nafaqat qaror qabul qilishni, balki ichki kurashni, noaniqlikni va kelajak oldidagi qo'rquvni ham ta'kidlab ko'rsatadi. Yoki, "O'tmish soylari" yana bir metafora ko'pincha insonning ortda qoldira olmaydigan va doimo uning xatti-harakatlariga hamda hayotni idrok etishiga ta'sir ko'rsatadigan og'ir xotiralarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, "Zaynab tulki" metaforasida ayol tulkiga majozan taqqoslanmoqda. So'zlardagi xususiyatlarning o'xshashligi konseptual bog'lanishni yuzaga keltirgan. Yoki, hayotni hikoya sifatida qabul qilish milliy madaniyatda aks etgani sababli, ushbu konseptual metaforani tarjima qilish tarjimon uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Bundan tashqari, o'zbek tilida "hayot – hikoya" metaforik modelining yana bir shakli sifatida "hayot – kitob" modeli ham uchraydi:

Hayot kitobini bexos varaqlab

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.

Tabassum o'rnida kuldim charaqlab.

Suyish kerak bo'lsa – telbacha suydin. (Zulfiya).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'tmish haqidagi ifodalar hayot konseptini kitob va hikoya kabi metaforik konstrukt bilan mustahkam bog'laydi va ular orqali mazmunan boyitiladi.

Metafora-fenomenlar, aslida, oddiy so'zlar bilan ifodalash qiyin bo'lgan hayot jihatlarini yuzaga chiqarish orqali tushunishning yangi darajasini yaratadi. Ular inson ruhiyatining nozikroq qatlamlariga kirib borish imkonini beradi.

Demak, metafora-fenomen bu konseptual metaforaning bir turi bo'lib, unda mavhum hissiy va sezgi tajribalar, kechinmalar (g'am-qayg'u, shodlik, og'riq, hayajon, uyat va hokazo) aniq jismoniy, sezgi yoki makoniy tasvirlar orqali tushuniladi. metafora-fenomenlarning kognitiv tilshunoslikda alohida ajratib ko'rastish, metafora tabiatini tushunishni kengaytiradi. Bu tushunish metaforani nafaqat ma'noni ko'chirish uchun aqliy mexanizm sifatida, balki mujassamlashgan, ekzistensial tajribani ifodalash vositasi sifatida ham talqin qiladi, ya'ni, u shuni anglatadiki, metafora nafaqat "fikrlash" usuli (kognitiv tilshunoslik ta'kidlaganidek), balki "olamni his qilish va unda mavjud bo'lish" usulidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil. Metafora-fenomen konseptual metaforaning bir turi sifatida "fikrlash"dan "his etish orqali fikrlash"ga o'tish deb tushunsa bo'ladi Kognitiv tilshunoslik shunday deydi: "Metafora tushunishga yordam beradi". Metafora-fenomen esa bunga qo'shimcha qiladi: "Metafora fikrlashdan avval tajribani his qilish, uni boshdan kechirish va ifodalashga ko'maklashadi."

Lakoff va Johnson uchun tana aqliy tuzilmalarni shakllantirish uchun asos bo'lsa, metafora-fenomen (Merlo-Ponti g'oyasiga ko'ra) idrokning mujassamlashgan tajribasi hisoblanadi, bunda dunyo metafora vositasida "o'zini namoyon qiladi". Metafora vosita emas, balki ma'noning yashash muhitidir. Konseptual metafora mantiqiy va tizimli bo'lsa-da, metafora-fenomen intuitiv, tuzilmasiz va ko'pincha takrorlanmasdir. Bu kognitiv tilshunoslikda metaforani tahlil qilish doirasini she'riy, badiiy va falsafiy tajribalarni qamrab olgan holda kengaytiradi. Masalan, "Hayot yo'li" (Hayot — Yo'L), konseptual metaforada mavhumni aniq narsa orqali ifodalash kuzatiladi, "Hayot — uyqu sathidagi yoriq" fenomenal metaforasi, bilimni tizimlashtirmaydi, aksincha tajribani namoyon etadi. Shunday qilib, kognitiv tilshunoslikda metafora-fenomen til va idrok o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga muhim hissa qo'shadi.

Ushbu yondashuv kontseptual metaforalar nazariyasida ilgari surilgan an'anaviy tushunchalarni kengaytirib, metaforalarning inson tajribasini shakllantirishdagi rolini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini taqdim etadi. Bu borada, Jorj Lakoff va Mark Jonsonning [1] asari konseptual metaforalar nazariyasiga asos bo'lib, metaforalar bizning idrokimiz va xatti-harakatlarimizni shakllantirishi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Per Aage Brandt o'zining "Cognition and the semantics of metaphor" [2] maqolasida kognitiv tilshunoslikning falsafiy asoslarini tadqiq etib, metaforalarni tushunishda fenomenologiya va semiotikaning muhimligini ta'kidlaydi. Z.Zlatevning [3] "Turning back to experience in Cognitive Linguistics via phenomenology" maqolasida fenomenologiya kognitiv tilshunoslikni qanday boyitishi mumkinligini muhokama qilib, til va idrok o'rtasidagi aloqani chuqurroq anglash imkoniyatini taklif etadi.

Fenomenologiyani kognitiv tilshunoslikka integratsiya qilish til va idrokning o'zaro ta'sirini, tajribamiz hamda dunyoni tushunishimizni shakllantirishdagi rolini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu yondashuv metaforalarni o'rganishda yangi istiqbollarni ochadi, an'anaviy konseptual sxemalardan tashqariga chiqib, ularning til va tafakkurdagi ahamiyatini yanada teranroq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Metafora-fenomen konseptual metaforaning muqobili emas, balki uning chuqurlashgan, jismonan-kechinma darajasidir. U mavhum tushunchalarni subyekt tomonidan muayyan vaziyatda qanday his etilishini ko'rsatib berish imkonini beradi. Shu tufayli, antropotsentrik tadqiqotlarda metafora-fenomen asosiy ahamiyatga ega, chunki u tilni shunchaki tizim sifatida emas, balki insonning dunyodagi tajribasi, idrokini va mavjudligini ifodalash vositasi sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Tilshunoslikdagi antropotsentrik yondashuv insonni, uning ongini, tanasini va his-tuyg'ularini til tahlilining markaziga qo'yadi. Metafora-fenomen esa aynan shu yondashuvga to'liq mos tushadi. Shu o'rinda, ba'zi antropotsentrik yondashuvlarda metafora fenomenning o'rnini ko'rib chiqmoqchimiz. Masalan, kognitiv tilshunoslik u tilda aks etgan jismoniy va aqliy tajribani tahlil qiladi, psixolingvistikada turli madaniyatlar tajribani metaforalar vositasida qanday aks ettirishini anglashga qaratilgan bo'ladi va lingvomadaniyatshunoslikda turli madaniyatlarning metaforalar orqali tajribani qanday mujassamlashtirishini tushunish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Juda muhim savol yuzaga keladi, agar metafora-fenomen konseptual metaforaning bir turi hisoblanisa, u konseptual metaforani qanday to'ldiradi? Bu savolga bir necha javob keltirish mumkin. Birinchidan, bu konseptual sxemalarni aniqlashtirish va chuqurlashtirishdir. Ya'ni, metafora-fenomen mavhum konseptual metaforalarni aniqlashtirishi va ko'rgazmali qilishi, ularni idrok etish uchun yanada tushunarli shaklga keltirishi mumkin. Ikkinchidan, obrazlilik orqali toifalash, bunda toifalash jarayonida metafora-fenomen narsa va tushunchalarning xususiyatlarini g'ayrioddiy qiyoslashlar orqali ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Bu yangi toifalarning shakllanishiga yoki mavjud toifalarni qayta ko'rib chiqishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Uchinchidan, u metaforik maydonning kengayishi bilan belgilanadi, chunki metafora-fenomen mavjud konseptual metafora doirasiga yangi aloqalarni kiritib, uning ma'no qamrovini boyitadi. To'rtinchidan, kommunikativ vazifa va madaniy o'ziga xoslik shundan

dalolat beradiki, metafora-fenomen o'zida madaniy, hissiy va subyektiv ma'nolarni mujassam etib, konseptual sxemalarni qayta tushunish yoki o'zgartirishga xizmat qiladi. Masalan, T.S.Eliotning "The Love Song of J. Alfred Prufrock and Other Poems" asaridagi "The yellow fog that rubs its back upon the window-panes" ("Deraza oynalariga orqasini ishqalaydigan sariq tuman") jumlasida "Tuman – hayvon" konseptual metaforasi, "tuman mushukdek oynalarga orqasi bilan ishqalanardi" metafora-fenomen. Eliot metafora-fenomendan foydalanib, tumanni jonlantiradi va unga hayvonga xos xususiyatlar beradi. Bu orqali u she'rning umumiy kayfiyatini kuchaytiradi va atmosferasini yanada ta'sirchan qiladi.

Tahlil va natijalar. Demak, metafora-fenomen mavhum va aniq, aql va hissiyot o'rtasida ko'prik vazifasini bajarishi mumkin. U shunchaki ma'lumot yetkazib qolmasdan, bizga voqelikni idrok etishning yangi usulini taqdim etadi. Misol uchun, "inson – o'qilmagan kitob" iborasi har bir insonning betakror va ko'p qirrali ekanligini ifodalash bilangina cheklanmaydi. Bu metafora bizga insonni o'z boblari, taqdir burilishlari va hatto hali hech narsa yozilmagan bo'sh sahifalari mavjud bo'lgan jonli tarix sifatida ko'rish imkonini beradi.

Idrok darajasida, metafora-fenomen bizda "sezgi ko'priklari"ni yaratishga qodir - u hatto bevosita jismoniy ko'rinishga ega bo'lmasa-da, muayyan assotsiatsiyalarni uyg'otishi mumkin. "Oq yo'l" obrazi nafaqat ezgulik va adolat ramzi sifatida xizmat qiladi, balki bizda aniq jismoniy holatlar bilan bog'liq tasavvurlarni ham uyg'otadi: yengillik, iliqlik hissi, hattoki toza havo hidini ham. Ko'pincha biz anglamagan holda paydo bo'ladigan bu obrazlar va assotsiatsiyalar idrokimizning eng chuqur mexanizmlarini harakatga keltiradi.

Xulosa. Turli madaniyatlar tilida metafora-fenomenni so'z bilan ifodalash shunchaki tasvirni yetkazish emas, balki madaniy o'zgarish jarayonidir. Metafora faqat adabiy vosita bo'libgina qolmay, chuqur tushunchalar va tasavvurlarni ifodalash usuli sifatida ham, turli til va madaniyatlarda o'ziga xos xususiyatlar va nozikliklarni namoyon etadi. Bu har bir til va madaniyat metafora-fenomenga o'zining betakror talqini va moslashuvini kiritishini anglatadi. Bu esa nafaqat metaforaning o'zini, balki madaniyat negizida yotgan dunyoqarashning o'ziga xos jihatlarini ham teranroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. 1980. – P. 131.
2. Brandt Per Aage. "Cognition and the Semantics of Metaphor." Acta Linguistica Hafniensia, vol. 26, no. 1, 1993, pp. 5–21.
3. Zlatev Jordan. «Turning Back to Experience in Cognitive Linguistics via Phenomenology.» Cognitive Linguistics, vol. 27, no. 4, 2016, pp. 559–572.